



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 12-yanvar, payshanba,
4 (23.725)-son

**KUN
HIKMATI**

Davrga
bo'ysunmagan
davrdan
tashqarida
yashaydi va
davrdan hech
narsa olmaydi

1913-yil aprel oyidan chiqq boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> https://twitter.com/zarnews_uz

TURIZM —

iqtisodiyotning yetakchi DRAYVERI



Prezidentimiz tomonidan 2022-yilning 24-dekabr kuni imzolangan "Samarqand viloyatining turizm va transport salohiyatidan samarali foydalanish, viloyatni "Samarqand — Yangi O'zbekistonning turizm darvozasi" konsepsiyasi asosida rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori yurtimizda turizmni, shuningdek, mazkur sohada tadbirkorlikni yanada taraqqiy ettirishga, xususan, ko'hna va hamisha navqiron Samarqandga xorijiy va mahalliy turistlar oqimini ko'paytirish, infratuzilma ob'yektlari salohiyatidan samarali foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ayni chog'da yangidan modernizatsiya qilingan Samarqand xalqaro aeroportida xorijiy aviatashuvchi kompaniyalar uchun qulay imkoniyatlarni yaratish, hududning transport-logistika tizimini rivojlantirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash maqsadlariga xizmat qiladi.

Mazkur hujjat doirasida amalga oshiriladigan ishlar va loyihalar xususida batafsil ma'lumot olish maqsadida Samarqand viloyati hokimi Erkinjon TURDIMOVga murojaat qildik.



Davlatimiz rahbarining mazkur qarori na faqat viloyatimiz, balki mamlakatimizning turizm salohiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatga ega, — deydi Erkinjon Turdimov. — Xususan, "Samarqand — Yangi O'zbekistonning turizm darvozasi" targ'ibot kompaniyasi yo'lga qo'yilmoqda. Avvalo, shuni ta'kidlash joziba, bu shunchaki targ'ibot emas. 2023-yilning birinchi choragida Samarqand shahrida "Aviation & Logistics Forum" II xalqaro aviatsiya forumi o'tkaziladi. Samarqand turistik markazi hududida chet

el fuqarolari uchun boj olinmaydigan savdo do'konlari tashkil etiladi. 2023-yil 1-sentabr-gacha shaharlararo va xalqaro avtobus qatnovlari axborot texnologiyalari orqali yo'lga qo'yiladi. Mazkur tizimda chiptalarni "Uzbus" platformasida xarid qilish tartibi, avtobuslarga GPS qurilmalarini o'rnatish hamda monitoring qilish bo'yicha yagona platforma yaratiladi. 2023-yil 1-fevralgacha aeroportda turizm axborot markazi tashkil qilinadi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

Anomal sovuq elektr energiyasi ta'minotida uzilishlarga olib keldi.

"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Samarqand hududiy filiali matbuot xizmatining xabariga ko'ra, Samarqand shahri aholisini elektr bilan ta'minlovchi "L-Loyish-110" kV elektr uzatish tarmog'i, "Samarqand" podstantsiyasidan chiquvchi 287-fiderida hamda 13-transformator punktida kuzatilgan nosozlik sababli Kimyogarlar qo'rg'oni, Sartepa massivining ayrim qismlari, shuningdek, Bog'i Temur mahallasi elektr ta'minotida uzilishlar kuzatilmoqda.

Hozirda shahar elektr ta'minoti korxonasining avariya qarshi maxsus brigadalari tomonidan ushbu holatni bartaraf etish choralari ko'rilyapti. Tezkor chiqish brigada xodimlari tuni bilan avariya tufayli nosozlik aniqlangan joylarda ta'mirlash ishlarini olib bormoqda. Bu kabi ishlar boshqa hududlarda ham amalga oshirilyapti.

D.TO'XTAYEV.

KUN FIDOYISI



"HARBIYLIKKA HAVASIM ORTDI!"

14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni

"Amakim Baxriddin Xudoyberdiyev boshqa davlatda uch yil harbiy xizmatda bo'lgan. U menga armiya taassurotlari haqida gapirib berganda ko'nglimda harbiy bo'lish orzusi paydo bo'lgandi. To'g'ri, amakim xizmati davomida boshidan ko'pgina qiyinchiliklarni ham o'tkazgan, ammo barchasiga bardosh berib, yigitlik burchini o'tab qaytgan. Bugungi kunda mamlakatimizda harbiy xizmatchilar uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Bunga yaqinda Markaziy harbiy okrug qo'shinlar qo'mondonining birinchi o'rinbosari Qahramon Ochilovning yoshlar bilan uchrashuvida ham yana bir bor amin bo'ldim. Harbiylikka bo'lgan qiziqishim yanada ortdi".

Bu gaplarni Vatanparvarlik oyligi doirasida tashkil etilgan "Rahbar va yoshlar uchrashuvi"da qatnashgan jomboylik Bobur Oblaberdiev aytdi. Samarqand shahridagi Yoshlar markazida o'tkazilgan uchrashuvda 200 nafarga yaqin yoshlar ishtirok etdi. Ularning aksariyati "Yoshlar daftari" tizimi orqali safarbarlik chaqiruv rezerviga jalb etilgan hamda haydovchilik guvohnomasiga o'qish xarajatlari qoplab berilgan yoshlar. Yigitlar o'zlarini qiziqtirgan savollar va murojaatlarni o'rtaga tashladi. Quvonarlisi, masalalarning aksariyati joyida ijobiy hal etildi. Jumladan, Samarqand davlat universiteti talabasi Akmal O'sarov harbiy psixolog sifatida ishga qabul qilinadigan bo'ldi. Tadbir davomida harbiy qurol-aslahalar ko'rgazmasi va Markaziy harbiy okrug ma'naviyat va ma'rifati markazi orkestrining chiqishlari namoyish etildi.

G'ofirjon BOBOBEKOV.



Harbiylar sportda qanday natijaga erishdi?

Markaziy harbiy okrugning Samarqand garnizonidagi harbiy qismda besh yildan buyon sportchilar vzvodi faoliyat olib boradi. Bu yerda harbiy xizmatchilar sportning boks, qo'l jangi, tosh ko'tarish, yengil atletika, dzyudo, milliy kurash, aralash jang san'ati va xalqaro armiya o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlari bilan shug'ullanib kelmoqda.

Vzvodga jismoniy va jangovar tayyorgarlikni a'lo darajada o'zlashtirgan 100 nafarga yaqin harbiy xizmatchi saralab olingan. — deydi sportchilar vzvodi guruh komandiri, katta leytenant Kozimjon Ismoilov. — Ular respublika va xalqaro musobaqalarda qatnashib, faxrii o'rinlarni egallab kelmoqda. Xususan, o'tgan yil sportchilar 41 ta oltin, 52 ta kumush va 37 ta bronza medalni qo'lga kiritdi. Hozirda harbiylar Xitoy, Fransiya, Rossiya, Tojikiston va boshqa davlatlarda o'tkaziladigan musobaqalarda tayyorgarlik ko'rmoqda.

Harbiy sportchilarning o'tgan yil erishgan yutuqlarida oddiy askar Temurbek Abdullalovning munosib hissasi bor.

O'yildan buyon erkin kurash bilan shug'ullanaman. — deydi Temurbek. — O'tgan yil Toshkentda erkin kurash bo'yicha harbiy xizmatchilar o'rtasida o'tkazilgan xalqaro turnirda birinchi o'rinni egalladim va O'zbekiston yoshlar terma jamoasi a'zoligiga qabul qilindim. O'tgan yil qo'l jangi bo'yicha "Mudofaa vaziri" kubogi uchun kechgan musobaqada bronza medalini qo'lga kiritdim.

Seriqlar o'rtasidagi bellashuvlarda Daler Yo'ldoshev aralash jang san'ati bo'yicha ikki karra O'zbekiston chempioni bo'ldi. Shuningdek, noyabr oyida Rossyaning Qozon shahrida qo'l jangi bo'yicha o'tkazilgan jahon chempionatida kumush medalni qo'lga kiritdi. Xalqaro armiya o'yinlari ishtirokchisi Sardor Mirzamahmudov ham Eronda o'tkazilgan armiya o'yinlari musobaqasida kumush medalga sazovor bo'ldi va Forishda o'tkazilgan "ArMi — 2022" musobaqasida O'zbekiston chempionligini tantana qildi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

QO'SHRABOT BESHINCHI TOIFADA

Tumanni tadbirkorligi rivojlangan hududlar qatoriga qo'shish uchun qoraqalpog' tajribasini qo'llash kerak

Bundan ikki-uch yil ilgari xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi sessiyasidan so'ng jurnalistlar uchun tashkil etilgan matbuot anjumanida hokimga shunday savol berdim:

— Yaqin orada tumanda birorta yirik loyiha amalga oshiriladimi?
Bu kutilmagan savol edi, shuning uchun unga darhol javob aytilish ham qiyin bo'ldi. Shu bois hokim gapni aylantirib, tumanda uzumzorlar 10 ming gektarga yetkazilishi, xonadonlarda 1 millionta tovuq boqish loyihasi amalga oshirilishini aytilib, vaziyatdan chiqmoqchi bo'ldi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

10-yanvar kuni viloyat xalq ta'limi boshqarmasi axborot xizmati 11-yanvardan umumta'lim maktablarda darslar boshlanishi haqida xabar berdi. Viloyat hokimligining rasmiy xabarida 11-yanvardan viloyatdagi 950 ta umumta'lim, 71 ta o'rta-maxsus ta'lim va 13 ta oliy ta'lim muassasalarida an'anaviy shaklda darslar boshlanishi aytiladi.

Shuningdek, 97 ta umumta'lim va 2 ta o'rta-maxsus ta'lim muassasalarida 13-yanvardan hamda 208 ta umumta'lim muassasasida 18-yanvardan o'quv jarayoni boshlanishi ma'lum qilindi. Kecha Samarqand shahridagi ayrim maktablarda bo'lib, o'quvchilarning darsga qatnashish holatini kuzatdik. Xususan, Samarqand shahridagi 30-umumiy o'rta ta'lim maktabida 1500 nafar o'quvchidan bor-yo'g'i 200 nafari darsga kelgan. Shahardagi 35-umumiy o'rta ta'lim maktabida esa 2370 nafar o'quvchi ta'lim olsa-da, qishning sovuq kunida atigi 300 nafar-ga yaqini darsga kelgan.

Oliy ta'lim muassasalarida

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 301-sonli "Davlat tibbiyot muassasalarini kadrlar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga asosan, davolash ishi, pediatriya ishi, kasb ta'limi magistratura va klinik ordinatura bitiruvchilari uchun darslar onlayn bo'lyapti, — dedi Samar-

Maktablarga 30 foiz ham o'quvchi kelmagan



boshlaymiz, talabalarimizga bir oy ta'til berilgan. — dedi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti bo'lim boshlig'i Nargiza Abdullavohidova. — Faqat qarzdor talabalar 10-yanvardan kelib, kredit to'laydi. Magistraturamiz uchun 20-yanvardan darslar boshlanadi. Viloyatdagi boshqa oliy ta'lim muassasalarida ham kecha davomat 20-25 foiz atrofida bo'ldi.

QO'SHRABOT

TURIZM

iqtisodiyotning yetakchi

DRAYVERI



(Davomiy. Boshlanishi 1-sahifada).

O'zbekiston 1993-yil 4-oktabrda Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi bo'lib Butunjahon turizm tashkilotiga a'zo bo'ldi. Bu, o'z navbatida, mamlakatda turizmni rivojlantirish ishlariga katta ijobiy turki berdi.

Turizmni rivojlantirish juda katta iqtisodiy samara beradi. Chunki u resurs chiqarmay, ya'ni faqat xizmat ko'rsatish orqali valyuta olib kirish imkonini yaratadi. Tahilllar shundan dalolat beradiki, ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda turizmning keladigan daromad boshqa sohalariga qaraganda ancha ko'proq valyuta tushumlarini keltiradi.

- Qaror bilan turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'yektlariga qanday imtiyozlar va yengilliklar taqdim etilmoqda?

- Bugun yurtimizda biror soha rivojini tadbirkorlar ishtirokisiz tasavvur qilish qiyin. Shu bois ham davlatimiz rahbari mamlakatimizda ishlabarmonlar faoliyatini yangi bosqichga chiqarishga doimo ustuvor ahamiyat qaratib kelmoqda.

Turizm xizmat ko'rsatishga asoslangan iqtisodiyotni yaratish va rivojlantirishni rag'batlantiradi. Ushbu faoliyat doirasi Toshkentdagi yirik mehmonxonalardan tortib, Samarqanddagi kichik xostellar, xalqaro aeroportlardagi butiklar, Buxoro va Xivaning xushmanzara ko'chalardagi kichik hunarmandchilik do'konlarini qamrab oladi.

O'zbekiston turizmni rivojlantirishda ulkan salohiyatga ega. Mamlakatda 8 mingdan ziyod madaniy meros ob'yektlari bo'lib, ulardan 209 tasi YUNESKOning Butunjahon merosi ob'yektlari ro'yxatiga kiritilgan.

Biroq so'nggi besh yilda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ko'plab boshqa ob'yektlar ham mavjud. Shunday bo'lsa-da, uzoq yillar mobaynida bu salohiyatdan to'liq foydalanilmadi.

Ta'kidlash jozika, Vatanimizda ko'plab o'z hna shaharlar, jumladan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent kabi qadimgi ipak yo'lining yo'nalishlari va Farg'onaga

vodiysining asosiy aholi markazlari joylashgan. Bundan tashqari, YUNESKOning Butunjahon merosi ob'yektlari ro'yxatiga kiritilgan tarixiy obidalarimiz cheksiz ilhom manbai hisoblanadi. Boy san'at va madaniyat, bog'rikenglik va mo'tadil diniy amaliyot an'analari butun dunyo bo'ylab sayyohlarni yuritmizga jalb qiladi.

2019-yil 1-fevraldan davlatimiz rahbariyati 45 ta yirik iqtisodiy taraqqiyotga ega mamlakatlar, jumladan, Yevropa va G'arb davlatlari fuqarolari uchun viza va vizasiz rejim joriy qilindi. Bugungi kunga kelib esa 90 ga yaqin davlat fuqarolari O'zbekistonga vizasiz tashrif buyurishi mumkin.

Bugungi kunga kelib, ko'plab xorijiy aviakompaniyalar Toshkent, Samarqand va boshqa shaharlarga aviaqatnovlar sonini oshirmoqda. O'z navbatida, so'nggi yillarda yirik xalqaro mehmonxona tarmoqlari mamlakat hududlarida o'z filiallari faoliyatini yo'lga qo'yarmoqda.

2022-yilning 15-10-sentabr kunlari Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlarining 22-sammiti, Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlari Kengashining birinchi sammiti va 2023-yilda Jahon sayyohlik tashkiloti Bosh assambleyasining 25-sessiyasiga hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki boshqaruvi Kengashining yillik yig'ilishiga mezbonlik qilish uchun aynan Samarqand shahri tanlangan.

Shahar Zarafshon daryosining gullab-yashnagan vodiysida joylashgan bo'lib, uning tarixi qariyb 3000 yillik davrlarga borib taqaladi. Samarqand asrlar davomida Buyuk Ipak yo'lining asosiy nuqtasi bo'lib, Sharq va G'arb madaniyatlarini chorrahasi hisoblangan. O'tgan asrlarning iste'dodli me'morlari tomonidan bu zaminida ulug'vorligi va betakrorligi bilan barchaning e'tiborini o'ziga tortadigan binolar barpo etilgan.

- Davlatimiz rahbarining alohida e'tibori va tashabbusi bilan so'nggi yillarda Samarqandda turizmni rivojlantirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirildi...



- Darhaqiqat shunday. So'nggi yillarda Samarqandda zamon talabiga munosib bunyodkorlik ishlarini amalga oshirildi. Xususan, mashhur olim va astronom Mirzo Ulug'bek sharafiga bag'ishlab ochiq kitob shaklida zamonaviy Samarqand xalqaro aeroporti qurilib foydalanishga topshirildi.

majmuasi ishga tushirildi. Yiliga 2 million sayyohga xizmat qilishi mumkin bo'lgan ushbu majmuasi sobiq eshakk eshish kanali atrofida barpo etilgan bo'lib, suv havzasining ikki qirg'og'ida uch qavatli kongress-xoil, zamonaviy mehmonxonalar, "Boqiy shahar" etnografik bog'i qurildi.

Samarqand - milliy davlatimiz va umuman, jahon sivilizatsiyasi tarixida alohida o'ringa ega. Ushbu boqiy shahar allomalari tariximizda ikkala Renessans davri yuzaga kelishi va rivojida muhim rol o'ynagan.

Samarqandni yirik turizm markaziga aylantirishda "Boqiy shahar" me'moriy ansambli alohida muhim o'rin tutadi. U kelgusida butun Samarqandning o'ziga xos "tashrif qog'ozi"ga aylanadi. Ushbu majmuasi har qanday sayyohni qadimiy afsonalar olamiga, tarixiy obidalar dunyosiga olib kiradigan tom ma'nodagi noyob loyihadir.

Shu o'rinda bir raqamga e'tibor bering. Bundan 3-4 yil oldin Samarqandga tashrif buyuradigan mahalliy va xorijiy turistlar soni 500 ming nafardan oshmas edi. Hozirgi kunda turizmni rivojlantirish bo'yicha islohotlar, qulay investitsiyaviy muhit yaratish bo'yicha sa'y-harakatlar tufayli Samarqandga kelayotgan xorijiy turistlar soni 2 barobar ko'paydi.



Umuman olganda, turizm sohasida olib borilayotgan islohotlar, joriy etilayotgan qulayliklar tufayli kelgusi besh yilda mamlakatimizga keladigan sayyohlar soni hozirgi 2 million dan 9 millionga yetishi kutilmoqda.

Bundan bir necha yil oldin Prezidentimiz Samarqandni yana "Yer yuzining sayqali"ga, dunyodagi eng go'zal va obod shaharlardan biriga aylantirganim, deb ta'kidlagan edi. Shu maqsad yo'lida Ilyom Buxoriy bobomizning yodgorlik majmuasi to'liq qayta qurilmoqda.

Xulosa o'rinda aytganda, bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish va davlat tomonidan huquqiy tartibga solish borasida katta yutuqlarga erishildi. Mazkur sohani rivojlantirish maqsadida Prezidentimizning "Samarqand viloyatining turizm va transport salohiyatidan samarali foydalanish, viloyatni "Samarqand - Yangi O'zbekistonning turizm darvozasi" konsepsiyasi asosida rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori juda katta imkoniyat beradi.

Chunonchi, X asrda tarixchi Abu Tohir Xoja "Agar boylik istasang, Hindistonga bor, agar ilm istasang, Makkaga bor, agar har ikkalasini istasang, Samarqandda qol", degan ekan. Bu haqiqat bugungi kunda o'z ahamiyatini tiklayapti, desak xato bo'lmaydi.

O'tkir RAHMATOV yozib oldi.



QO'SHRABOT BESHINCHI TOIFADA

Tumanni tadbirkorligi rivojlangan hududlar qatoriga qo'shish uchun qoraqalpoq tajribasini qo'llash kerak

(Davomiy. Boshlanishi 1-sahifada).

Garchi bu raqamlar ancha salmoqli, kimgadir jozibali tuyulsa-da, meni qanoatlantirmadi. Negaki, ikkala loyihaning ham tag zamini anchayin bo'sh ekanligini ilg'ab olish qiyin emas. Aytaylik, tumanda 10 ming gektar uzumzor barpo etildi, xo'sh, uni sug'orish uchun suv qayerdan olinadi? Hududda oqar suv yo'q, faqat yerosti suvlaridan foydalanish mumkin, buning uchun esa minglab vertikal tik quduqlarni burg'ulash, ularni suv nasoslari bilan jihozlash, tomchilatib sug'orish uskunalarini o'rnatish talab etiladi.

Shuningdek, xonadon parrandachiligi loyihasi ham, mana, ikki yildirki, aytarli rivojlanmay, depressiv turibdi. Axir, bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak, deyдилar. Hisob-kitoblarga ko'ra, 1 million parrandan boqish uchun yiliga 45-50 ming tonna don zarur. Tumanning imkoniyati esa yiliga 4-5 ming tonnadand oshmaydi. Xo'sh, ozuqa bazasini to'ldirish uchun qolgan 40-45 ming tonna don qayerdan olinadi? Bu haqda negadir hech kim bosh qotirmaydi.

Afsuski, Qo'shrabot tumani-da boshqa sohalar ham ana shunday "chalaqon" loyihalar, yillar davomida ro'yogga chiqmayotgan rejalar og' emas. Bularning bari sharoitning og'irligi, tadbirkorlik muhitining nochorligi, ishlabarmonlar uchun turli-tumani to'siqlar mavjudligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, turizm sohasida olib borilayotgan islohotlar, joriy etilayotgan qulayliklar tufayli kelgusi besh yilda mamlakatimizga keladigan sayyohlar soni hozirgi 2 million dan 9 millionga yetishi kutilmoqda. Eng muhimi, turizm sohasida mehnat qilayotganlar soni 500 mingdan oshadi. Ularni o'qitish va kasbiy mahoratini oshirish maqsadida Samarqand shahrida "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, Prezidentning "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish

chora-tadbirlari to'g'risida" qi farmoni tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Mazkur hujjatga ko'ra, 2023-yil 1-yanvardan respublikaning 208 ta tuman va shaharlari 5 toifaga ajratildi. Endi ana shu toifadan kelib chiqqan holda tadbirkorlarga soliq imtiyozlari, subsidiyalar, kreditlar beriladi. 2020-yil 1-yanvarga qadar soliq solishning tabaqalashtirilgan tizimi yo'lga qo'yildi.

Viloyatimizda sharoiti og'ir hisoblangan Qo'shrabot tumani 5-toifaga kiritildi. Shu munosabat bilan qo'shrabot tadbirkorlar uchun uch yil mobaynida aylanmadan olinadigan soliq, foyda solig'i, ijtimoiy soliq stavkalarini 1 foiz miqdorida belgilandi. Tadbirkorlar yer va mol-mulk solig'i bo'yicha hisoblangan summanning atigi 1 foizini to'laydi. Yakkala tadbirkorlar esa qat'iy belgilangan soliqni to'lashdan butunlay ozod etildi. Yangi yilning ilk kunlarida ota-onalar uchun ham xushxabar tarqaldi: davlat bog'chalari da to'lovlar 50 foizga qisqardi. O'ylaymizki, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan joriy etilgan bu imtiyozlar uzoqdan xorib-charchab kelayotgan, amal-taqal kun ko'rayotgan tadbirkorlarimizga nafasni rostlash, qaddini tiklab olish uchun imkoniyat yaratdi.

Shu bilan Qo'shrabot qulab-yashnab ketadimi, tadbirkorlik keng rivojlangan hududlar qatoridan joy oladimi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu savolga javobning qanday boshi berk ko'chada turibdi.

Bizda bitta vamon odat bor: biror ishni boshlashdan oldin boshni uzoq qashlaymiz. Oqibatda dasturlarni ishlab chiqish yarim yilgacha cho'zilib ketadi, qolgan yarim yilda esa uni bajara olmay halak bo'lamiz. Oqibatda dasturiy ishlarimiz o'lda-o'lda qolib ketadi. Bu gal shuni ham hisobga olish foydadan xoli emas.

Shu o'rinda viloyat hokimligiga aytadigan takliflarim bor. Qo'shrabot tumani tadbirkorligi rivojlangan hududlar qatoriga chiqarish uchun qoraqalpoq tajribasini yo'lga qo'yish lozim. Bilasiz, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Qoraqalpoq istondagi tuman va shaharlar viloyatlarga birlashtirildi va ularning ko'magida qoraqalpoq qardoshlarimizning ko'pgina muammolari hal bo'ldi. Xuddi shunga o'xshash tarzda Qo'shrabotga viloyatimizning tadbirkorlik rivoj topgan hududlari birlashtirilsa, tumanga investitsiyalarining kirib kelishi, ilg'or tajribalarning keng yoyilishi kuchayardi va bu tadbirkorlikka rag'bat bo'lardi. Shuningdek, Qo'shrabot tumani aholisi ilm-fanga juda tashna el. Bu yurtidan ko'plab nomdor olimlar, ziyolilar yetishib chiqqan. Shu bois bu yerda Samarqand davlat universiteti filiali ochilsa, yurt taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shar edi.

Norbobo SHAKAROV, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi.

“OLTIN O‘YLAK” SINDROMI

Yoxud pul topish uchun insofdan kechish shartmi?

Bir vaqtlar ijtimoiy tarmoqlarda hindistonlik magnatlardan biri o'zining tug'ilgan kuniga to'rt kilogramm tosh bosadigan oltin ko'ylak tikirgani haqida o'qib, taajjubga tushgandim. Shu ko'ylakning puliga yuzlab qashshoqlarning qorini to'ydirsa bo'lardi-da. Buni qarangi, oradan hech qancha vaqt o'tmay, bizda ham puldan sarupo kiyganlar paydo bo'ldi - "yangi" boylar yangicha udumlarini o'ylab topishmoqda.

To'g'ri, bozor iqtisodiyoti, pul topish uchun juda qulay bir davrda yashayapmiz. Kalavasi toppanlar oddiy narsalardan ham "biznes" yasab, tezda boyib ketayotadi. Bu yaxshi, albatta. Lekin pulning ortidan quvib, vijdoni bo'lmayapmizmi? Haromini ham "biznes", deya yo'qonimizga qaraganda, iymonni-da pullashga tayyordemiz.

Uzoqqa bormaymiz, ko'chaga chiqing, har qadamda dorixonaga. Xo'sh, viloyatimizda nega dorixonalar barcha ko'p, bilasizmi? Sababi dori "biznes"i hozir katta foyda keltiryotadi. Bu oddiy biznes emas, balki inson salomatligi, hayoti ustiga qurilgan juda jirkanch tijorat. Shifoxonaga borasiz, shifokor tayinli tekshiruvlarsiz bir qopqa sig'adigan dori yozadi. "Mehribonlik qilib, bu dorilarni qaysi dorixonadan topish mumkinligini ham aytadi. Tanish vaziyat, shundaymi? Eng qiziq'i, bu dorilar pistonchi firmalari bo'lib, shifokor sotilgan har bir dori uchun "gonorar" oladi. Vaziyat shu darajaga yetib bordiki, bugun aksariyat shifokorlar bu qo'shimcha "biznes"ini yashirayotgandir. Xalq esa ilojisiz. Isitmasi chiqsa, o'zingdan chiqqan baloga... deb yana o'sha do'xtirga murojaat qilishga majbur. Ularning o'rnida siz bo'lganida, bu imkoniyatdan foydalanmagan bo'larmidingiz? Ishonchmiz komilki, bu savolga vijdoni oldida xolis javob berganlarning yuzdan birgina "Yo'q, o'ylagim qanoat qilib yashardim", deya qat'iy javob beradi. Boshqalar allaqachon xayolida hali qilmagan qilmishini

oqlash yo'llarini izlay boshladi. Kasalxonaga qurgan bemorning yuziga emas, cho'ntagiga qarab muomala qilishi, mehmonxonaga qurgan unda ishrat uchun sharoit yaratishi, korxonaga ochgan ishchilarga mehnatiga yarasha haq to'lamasligi, oddiy do'kondor ham savdo madaniyatiga amal qilmasligi normal holatga aylaniy ulgurdi. Pul topsa bo'ladigan soha boriki, unda qalloblik, firibgarlik muhiti hukmron. Biznes shunaga bo'ladi?

Tanishim aytib qoldi: "Tadbirkorlik bilan shug'ullanishga qaror qildim. Lekin qaysi ishni surishtirmay, tizimni, xalqni aldamasdan foyda qilish qiyin ekan. Do'kon ochsang, boydan qochish uchun chek bermasliging kerak, oshxonaga ochsang, masalalar sifatiga ko'z yumasdan yoki xizmat haqini oshirasan. O'ylab-o'ylab no'vovxonaga ochdim. Foydasi kamroq bo'lsa-da, halol pul topayman".



Hindistonlik oltin ko'ylak sohibiga kelganki, izlab bildim, u muhtojlarga yordam beruvchi homiy sifatida ham tanilgan ekan. Uning libosiga emas, yaxshi amalga taqdim qilinsa bo'lardi. Aslida, bu masalada biz boshqa xalqlarga o'rnak bo'lishimiz kerak.

Asqar BAROTOV.



Koreyalik mutaxassislar monomarkazda

Samarqand shahridagi "Ishga marhamat" monomarkazida ish bilan band bo'lmagan aholi kasb-hunarga o'qitilyapti. Markazda talab yuqori bo'lgan qurilish, maishiy xizmat, texnik-muhandislik kabi sohalar bo'yicha 22 ta kasbga o'rgatish yo'lga qo'yilgan.

E'tiborlisi, markazda o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etish maqsadida xalqaro hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Xususan, bugungi kunda sohada yuqori tajribaga ega bo'lgan koreyalik mutaxassislar bilan hamkorlikda mahorat darslari tashkil etilyapti. Ayni paytda Koreya Respublikasi Keimyung universitetining 5 nafar professor-o'qituvchi va 30 nafar talabasi markazda bo'lib turibdi.

- Markazda yaratilgan sharoitlar

Sulaymon MARDIYEV.

Xalqaro talablar darajasida, - deydi Keimyung universiteti professori Lee Sang Koo. - Xususan, o'quv ustaxonalari va laboratoriyalarda tashkil etilayotgan amaliy mashg'ulotlar bizda yaxshi taassurot qoldirdi. Maqsadimiz aholi bandligini ta'minlashda o'z tajribamizni o'rgatish. Markazda koreyalik mutaxassislar tibbiyotda birinchi yordam, oshpazlik hamda sarteroshlik kasblari bo'yicha mahorat darslari o'tiyapti.

IMTIYOZ

Prezidentimizning 2022-yil 9-noyabrda "Tadbirkorlik faolligini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, davlat tomonidan tadbirkorlik faolligini tartibga solish vositalari ro'yxati qisqartirildi. Jumladan, 2023-yil 1-yanvardan quyidagilar bekor qilinadi:

- tadbirkorlik sub'yektining ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilganda kreditorlarni qozma ravishda xabardor qilish va O'RVda bu haqda e'lon berish;
- g'akka tartibdagi tadbirkor tomonidan yollangan xodimlarni Yagona milliy mehnat tizimida hisobga olish orqali davlat soliq xizmati organlarida alohida hisobga qo'yish.
- 2023-yil 1-martdan soliq to'lovchilarga soliq organlarining sayyor soliq tekshirovlari va soliq auditori natijalari bo'yicha qabul qilgan qarorlari ustidan to'g'ridan-to'g'ri sudga shikoyat qilish huquqi beriladi.
- Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablar g'agona elektron reestri bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Viloyat davlat soliq boshqarmasi axborot xizmati ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



Oliy ta'lim

Amaliyot Germaniyada

Respublikamiz oliy ta'lim tizimining transformatsiya qilinishi hamda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida kredit-modul tizimining joriy qilinishi o'qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaga barham berish, ta'lim oluvchining haqiqiy bilimni yuzaga chiqarish hamda talabaning mustaqil o'qib-o'rganib, o'z ustida ishlashga zamin yaratmoqda.

Har bir davlatning istiqbolli ilm-fan, texnika, ta'lim taraqqiyoti bilan birga barkamol kadrlarni tayyorlashiga ham bog'liqdir. Malakaviy amaliyot oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayonining izchil davomi sanaladi hamda olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash, ko'nikma, malakani ishlab chiqarish jarayoniga qo'llash imkonini beradi. Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filialining iqtisodiyot, barqaror qishloq xo'jaligi va raqamli texnologiyalar kafedrasida assistenti Oybek Norboyev 2022-yil 1-dekabrda 2020-yil 29-dekabr gacha bo'lgan muddatga Italiyaning Pisa va Belgiyaning Antverp universitetlari tayanch doktoranturasiga Pisa universiteti granti mablag'larini hisobidan hamda bitiruvchi Ahmadjon Nurullayev Belgiyaning Gent universitetiga qishloq hududlarini rivojlantirish magistratura yo'nalishi bo'yicha o'qishga yuborildi.

Bugungi kunda filialda 84 nafar talaba ish bilan band bo'lib, ularning 32 nafari ilmiy loyihalarda qatnashmoqda, 44 nafari bo'limlarda faoliyat ko'rsatyapti. 2022-yilda 11 nafar magistrant Germaniyaning yirik qishloq xo'jaligi kompaniyalarida haq to'lanadigan amaliyotda bo'lib qaytdi. Hozir 31 nafar 3-kurs bakalavrlar talabalari ushbu davlatning ilg'or agrar kompaniyalar va fermer xo'jaliklarida 3 oylik xorijiy amaliyotni o'tarmoqda. Talabalarimiz amaliyot davrida issiqxonada meva-sabzavot ekinlari yetishtirish hamda gul ko'chatlarini parvarishlash, yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saralash, saqlash hamda qayta ishlash, zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalarida ishlash bo'yicha o'z ko'nikma va tajribalarini o'tirmoqda.

Husniddin XONQULOV, Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari, dotsent.

Fuqaroning imtiyozli pensiyaga bo'lgan huquqi tiklandi

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra, qutqaruv xizmatlari va professional qutqaruv tuzilmalarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlovchilar umumiy belgilangan yoshdan o'n yilga kamaytirilgan shaklda imtiyozli tartibda pensiyaga chiqish huquqiga ega. Xususan, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda kamida 5 yil ishlagan erkaklar va kamida 3 yil 9 oy ishlagan ayollarga ham pensiya yoshi qisqartirilishi belgilangan.

Fuqaro A.J. 1994-yildan buyon Bulung'ur tumani 10-kasbiylashtirilgan yong'in xavfsizligi qismida turli lavozimlarda, 2020-yilning 3-yanvardan tuman favqulodda vaziyatlar bo'limida yo'riqchi-qutqaruvchi (yong'in o'chiruvchi) vazifasida ishlagan. Ammo u qonunda ko'rsatilgan imtiyozdan foydalanib, ertaroq pensiyaga chiqishga qaror qilganda, Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Bulung'ur tumani bo'limi unga pensiya tayinlashni rad etgan.

Fuqaro Bulung'ur tumani adliya bo'limiga poymol qilingan huquqlarini tiklashni so'rab murojaat qilgach, adliya organi Samarqand tumanlararo ma'muriy sudiga da'vo arizasi kiritdi. Sud fuqaro A.J.g'a pensiya tayinlashni rad etish to'g'risidagi

qarorni haqiqiy emas, deb topdi. Shuningdek, javobgarga fuqaroga umumiy belgilangan yoshni o'n yilga qisqartirgan holda yoshga doir imtiyozli pensiya tayinlash majburiyati ham yuklandi.

Ma'lumot o'rinda qayd etish joizki, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, erkaklar 60 yoshga to'lganda va ish staji kamida 25 yil bo'lganda hamda ayollar 55 yoshga to'lganda va ish staji kamida 20 yil bo'lganda yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'ladi. Oxirgi ish joyidan qat'i nazar, yerosti ishlarida, mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda to'liq ish kuni davomida band bo'lgan xodimlar, ya'ni, erkaklar ish staji 20 yil bo'lib, bundan kamida 10



yil ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda, ayollar ish staji 15 yil bo'lib, bundan kamida 7 yil 9 oy ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda yoshi 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga ega bo'ladi.

Mansur HASANOV, viloyat adliya boshqarmasi axborot xizmati rahbari.

Mamlakatimizda veterinariya sohasini rivojlantirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, "Veterinariya to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi, soha uchun mutaxassislar tayyorlashga katta e'tibor berildi.

Samarqand qishloq xo'jaligi instituti negizida Samarqand veterinariya meditsinasi instituti tashkil etildi. Prezidentimizning 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qarori bilan institut Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti'ga aylantirildi. Universitetning 2 ta filiali va universitetga qarashli 4 ta tayanch texnikum hamda mamlakatimizning 8 ta oliygohida veterinariya mutaxassislari tayyorlanmoqda.

Veterinariya keng soha



Nega veterinariyaga burchalik katta e'tibor qaratilmoqda? Chunki, veterinariya nafaqat chorvachilik haqidagi, balki tibbiy fan hamdir. Undagi ko'pgina kasalliklar odamlarga va hayvonlarga xosdir.

Tibbiyot shifokorining ob'yekti faqat inson bo'lsa, veterinariya shifokorining ob'yekti keng qamrovdagi jonzorlar, jumladan, qishloq xo'jaligi, uy va yovvoyi hayvonlar, qushlar, baliqlar va foydalii hasharotlar kiradi.

Veterinariya shifokori hayvonlar va odamlarga xos bo'lgan yuqumli va parazitlar kasalliklarini aniqlaydi. Ko'plab kasalliklarning kechishi va oqibatlarini oldindan aytishga qodir. Veterinariya shifokori kasbiy etikaning eng yuqori talablarini hisobga olgan holda, faqat o'z vakolatlar doirasida harakat qilish, odamlarga maslahat va tushuntirish berish huquqiga ega.

Muzaffar ISAYEV, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o'qituvchisi.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus tumanidagi "INVEST STROY QORAQALPOQ" mas'uliyati cheklangan jamiyati (STIR: 309270093) o'z ustav fondini 3 000 000 000 (uch milliard) so'mdan 1 163 809 300 (bir milliard bir yuz oltmish uch million sakkiz yuz to'qqiz ming uch yuz) so'm kamaytirib, 1 836 190 700 (bir milliard sakkiz yuz o'ttiz olti million bir yuz to'qson ming etti yuz) so'm etib belgilamoqda. Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha da'volar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus tumani, Akmagit massivi.

Samarqand shahridagi "SMART CITY FAROVON" mas'uliyati cheklangan jamiyati (STIR: 309475383) o'z ustav fondini 10 000 000 000 (o'n milliard) so'mdan 7 620 505 000 (etti milliard olti yuz yigirma million besh yuz besh ming) so'm kamaytirib, 2 379 495 000 (ikki milliard uch yuz etmish to'qqiz million to'rt yuz to'qson

besh ming) so'm etib belgilamoqda. Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha da'volar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri Bedil ko'chasi, 18-"A" uy.

Samarqand shahridagi "FAROVON HAYOT GROUP AAK" mas'uliyati cheklangan jamiyati (STIR: 309493615) o'z ustav fondini 10 000 000 000 (o'n milliard) so'mdan 8 138 300 000 (sakkiz milliard bir yuz o'ttiz sakkiz million uch yuz ming) so'm kamaytirib, 1 861 700 000 (bir milliard sakkiz yuz oltmish bir million etti yuz ming) so'm etib belgilamoqda. Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha da'volar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri Bedil ko'chasi, 18-"A" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrliloyevna notarial idorasida marhum Xaydarova Anzurtaga

(1963-yil 26-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrliloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Urgut tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nabiyeva Nargis Qahramonovna notarial idorasida marhum Rashidova Soliya Egamberdiyevnaga (2022-yil 26-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nabiyeva Nargis Qahramonovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Urgut shahri Navoiy shohko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Maxmmadiyev Kodirga

(1998-yil 28-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasida marhum Shukurov Normamat Shadmanovichga (2022-yil 22-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrliloyevna

notarial idorasida marhum Yunusova Munavar Ismoilovnaga (1993-yil 29-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrliloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

BEKOR QILINADI

Samarqand shahridagi "IPPO KOREA" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 310035916) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand davlat chet tillar instituti rektorati va kasaba uyushma qo'mitasi institut qo'shma ta'lim dasturi fakulteti dekani Bahodir Odilovga otasi BAKTIYOR boboning vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

IX-XII asrlar Sharqda ilm-fan yuksak darajada rivojlangani bois Sharq Rennessansi deb e'tirof etilgan. Ayniqsa, o'sha davrlarda yurtimizning ko'hna va qadimiy shahar va qishloqlari ilm-fan, madaniyat o'chog'i hisoblangan. Shu bois u joylardan yetishib chiqqan allomalar o'zining ilmiy faoliyati bilan dunyo sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan. Ana shunday fayzu tarovatga ega maskanlardan biri qadimgi Rustufag qishlog'idir. Bu qishloq Buyuk Ipak yo'lining ustida, Miyonqolning markazi hisoblangan Ishtixon shahriga tegishli yerda joylashgan.

RUSTUFAG'NDAN CHIQQAN ALLOMA



Rustufag'ning maqtovga sazovor tomonlaridan biri – bu yerda allomalar ulg'ayganidir. Tarixiy yozma manbalarda muhaddis va faqih Abulhasan Rustufag'niyning tug'ilgan joyi Rustufag'ni qishlog'i ekanini qayd etilgan. Shu bois unga Rustufag'niy nisbasi berilib, xalq orasida Abulhasan Rustufag'niy nomi bilan mashhur bo'lgan. Allomaning to'liq ismi Abulhasan Ali ibn Sa'id Rustufag'niydir. Keyingi davrda olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, Abulhasan Rustufag'niyning qabri Ishtixon tumanining Boyliota qishlog'ida joylashgan. Manbalarda Abulhasan Rustufag'niyning tug'ilgan yili qayd etilmagan bo'lsa-da, vafot etgan yili turlicha keltirilgan. Jumladan, Xayriddin Zirkiyning "A'lom" asarida 930-yil deyilsa, Komixon Kattayevning "Samarqandning buyuk allomalari" va "Buyuk huquqshunos allomalar" asarlarida 901-yil deb keltirilgan.

Allomaning bolaligi tug'ilib o'sgan qishlog'i Rustufag'nda o'tgan. Keyinchalik Samarqand shahriga borib, taniqli allomalar – Abu Ahmad Iyodiy, Abu Mansur Moturidiy va Abul Qosim Hakim Samarqandiydan ta'lim olgan. Abulhasan Rustufag'niyning muhaddis, mutakallim va hanafiy mazhabining yirik faqih bo'lib yetishishida uning ustozlari kalam, haqiqat va hikmat ilmining buyuk imomlari bo'lgani o'z ta'sirini ko'rsatgan. Abul Mu'yn Nasafiy "Tabsiratul adilla fi ilmi kalam" ("Kalam ilmidagi dalillar ko'zgusi") kitobida Abulhasan Rustufag'niy Moturidiyning do'stlaridan biri, goh shogirdi sifatida tilga olgan.

Manbalarda allomaning qalamligina mansub asarlar va ularning adadi borasida turlicha qarashlar mavjud. Abul Mu'yn Nasafiy "Tabsiratul adilla fi ilmi kalam" asarida Abulhasan Rustufag'niyning "Irshodul muhtadiy" ("Hidayatga boshlovchi qo'llanma") va "AZ-Zavoidul favoid" fi arvo'il ulum (ilmlar navidagi "Qo'shimcha va foydali (narsalar)") nomli asarlarini tilga olib, kalam ilmigga oid boshqa asari ham borligini ta'kidlab o'tgan. Umuman olganda, Abulhasan Rustufag'niyning asarlari fiqh, kalam, tafsir, hadis, tasavvuf, axloq va hikmat kabi keng qamrovli mavzularga oid bo'lib, X asrda mamlakatimiz hududidagi

eng yorqin ilm va ma'rifat markazlaridan biri bo'lgan Samarqanddagi ma'naviy-ma'rifiy muhitni baholash, moturidiylik ta'limotining ilk taraqqiyot bosqichini o'rganish nuqtai nazaridan o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Arab tarixchisi Abdulhay Laknaviyning yozishicha, Rustufag'niyning "Kitobuz zavoid val favoid" asari turli ilmlar tasnifiga bag'ishlangan. Mazkur manbalarga tayangan holda aytish mumkinki, Abulhasan Rustufag'niy ilmlar tasnifi bo'yicha maxsus asar yozgan dastlabki olimlardan biri bo'lgan. Tabaqot kitoblarida alloma muhaddis, mutakallim va hanafiy mazhabining yirik faqih, Samarqandning ko'zga ko'ringan shayxi sifatida tilga olingan. Abulhasan Rustufag'niy fiqh masalalarida mustaqil fikr yuritadigan mujtahid – ijthod qiladigan olim bo'lib yetishgan. Manbalarda Abulhasan Rustufag'niy bilan ustoz Abu Mansur Moturidiy o'rtasida fiqh masalalarida qiziqin bahsu munozaralar bo'lib o'tgani qayd etilgan.

Imom Abulhasan Rustufag'niy hayoti va ilmiy merosi haqidagi ma'lumotlarni Xayriddin Zirkiyning "A'lom", Abdulhay Laknaviyning "Al-favoidul bahiyye fi taroijumil hanafiyya" va Abul Mu'yn Nasafiyning "Tabsiratul adilla" kabi asarlarida ko'rish mumkin. Bundan tashqari, hozirgi davr tadqiqotchilari olimlarining asarlarida ham uchratish mumkin. Xususan, Ubaydulla Uvatovning ko'plab ilmiy maqolalarida, nemis olimi Ulrich Rudolfning "Al-Moturidiy va Samarqandda sunniylik iohiyati", Komixon Kattayevning "Samarqandning buyuk allomalari", "Buyuk huquqshunos allomalar", Abdulg'afur Razzoq Buxoriyning "Mesabnoma" va Abdumalik To'ychiyev tomonidan ta'hoq qilingan "Muxtasar Favoyid Rustufag'niy" kabi asarlar shular jumlasidan.

O'z asrlarda Movarounnahrda chiqqan allomalar dunyo ilm-fani taraqqiyotiga o'zlarining benazar hissasini qo'shgan. Jumladan, birgina Abulhasan Rustufag'niyning boy ilmiy merosi keyingi davr olimlari uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Yo'ldoshxon ISAYEV,
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi.

Muhabbatsiz kishining ko'ngli qishdir...

Adab sarishtasin tutg'il, adabdin yaxshi roz bo'lmas.
Adabsiz ikki olamda bilingkim sarfaroz bo'lmas.

Tavoze' peshalik, shikastalik, olamda kasb ayla,
Mabodo sinsa, kosayi zarning bahosi oz bo'lmas.

Havog'a uchma, ey, ko'ngul qushi, monandi Anqodek.
Baland uchqon bila zog'uzg'on olamda boz bo'lmas.

Xudoning g'aznasi kengdir, tila ganji Ilohidin,
Magar bir qatrasini tomsa, to'kulgan birla oz o'lmas.

Kima davlat qushi qo'nsa, uchar har yona qanotsiz,
Kiming baxti qaro bo'lsa, oning dasti daroz bo'lmas.

Fuzuliy, ikki olamda muhabbat oshnosi bo'l,
Muhabbatsiz kishining ko'ngli qishdir, aslo yoz bo'lmas.

FUZULIY.

Talaba bo'lish hammaga ham nasib qilavermaydi. Bu baxtga erishganlar katta orzu-umidlar, maqsadlar bilan yashaydi. Faqat bunga yetish uchun u bir yilda taxminan 292 kunini oliyog'ohda o'tkazishi, asosiy vaqtini ilm o'rganish uchun sarflashi zarur. Xo'sh, amalda ham shunday bo'lyaptimi? Afsuski, bu savolga hamma ham ijobiy javob berolmaydi. Bugun yoshlarning vaqtini o'g'irlovchi, ularni o'qishdan sovituvchi omillar shunchalik ko'pki, deyarli har bir talaba o'qish davomida ularga duch keladi va odatga ko'ra jabrini ham o'zi tortadi.

TALABA ni NIMA QIYNAYAPTI?

TALABA KELIN O'QIYDIMI YOKI RO'ZG'OR QILADI?

Bu gap talabalik vaqtda turmushga chiqqan barcha kelinlar haqida emas. Ma'rifati oilaga kelin bo'lib tushgan qizlarning darslarda ishtirok etishida muammo kuzatilmaydi. Lekin bu o'ndan biridagina uchraydi. Aslida, o'sha kelinlar ham vaqtini to'liqligicha o'qish-izlanishga sarflay olinmaydigan yaxshi bilimchi. Sababi oddiy, ularning o'yi ko'proq maishiy muammolar bilan band bo'ladi. Agar u homilador bo'lsa, o'qish eng oxirgi masalaga aylanadi.

Sir emas, bizda qizlar o'qishga kirishi bilan o'ziga qo'lg'i qizilarga harakat qilinadi. Bu ota-onalar uchun har tomonlama qulay, bir tarafdin o'qimishli qizga yaxshi joylardan og'iz solinadi, ikkinchi tomondan ular shu yo'l bilan kontrakt to'lovidan ham qutulishi mumkin. Ammo bunday shoshma-shosharlik qizning hayotida qanday aks etishini o'ylab ko'rdikmi? O'zbekchilik, deydi kattalar. O'zbekchilik talaba qizlarning istagi, taqdiri inobatga olinmaydi, degani emas. Yoki ayollarga diplom faqat sep uchun kerakmi?



Xo'p, talabalikda kelin bo'lish "baxti"dan qochib-qutilib bo'lmas ekan. Unda neqa kelin bo'lgan talabalariga o'qishi, yaxshi mutaxassis

bo'lib yetishishi uchun yetarli sharoit yaratilmaydi? Ayol professor, tadqiqotchi, olimlarimizning kamligiga sabab ham shu emasmi? Oliyog'ohdagi oraliq, yakuniy imtihonlardan yiqilib, arang kursdan kursga o'tayotgan, domlarning "ko'magi" hisobiga bahosini olayotgan kelin talabalaridan olimlar chiqishi qiyin, albatta.

MUSTAQIL TA'LIM MUSTAQIL BAJARILMAYPTI

Talabalarni o'qishdan sovitayotgan muammolar haqida gap ketganda, mustaqil ta'limga o'tkazilmaslikning iloji yo'q. Aytish joizki, mustaqil ta'lim metodikasi talabalarining o'z ustida ko'proq ishlashi va izlanishini nazarda tutadi. Amalda esa buning teskarisi bo'lyapti. Bu amaliyot uchun berilgan vaqt ko'pchilik talabalarga navbatdan tashqari ta'lim vazifasini o'tamoqda. Hisobot, deysizmi? Buning yechimi oson. Bugun ma'lum haq evaziga mustaqil ta'lim daftrani to'ldirish, referat yozish singari o'nlab "xizmat"lardan foydalansa bo'ladi. Eng qiziqi, bu "innovatsiya"dan barcha xabardor. Shunchaki, boshni ortiqcha "qotirmaslik" uchun ko'z yumiladi.

Agar buning teskarisi bo'lganda, ota-onalar, o'qituvchilar talaba-yoshlarning kelajagiga qayo'rganda, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatgan, teroqagan, kerak bo'lsa, jazolab, esini kiritib qo'yg'an bo'lardi. Mustaqil ta'lim ham mutaqil hayot singari puxta tayyorlanibdan so'ng boshlanishi kerak. Aytaylik, ota-onalar farzandining o'qishi uchun yetarli sharoit yaratishga mas'ul bo'lsa, oliyog'oh o'qilishi, o'z ustida ishlashi o'rgatishi kerak. "Pistonchi kitobni topib, konspekt qilib kel", deyish bilan ish bitmasligi tayin. Bunday ko'zbo'yamchiliklarga biz toqat qilsak ham zamon toqat qilmaydi. O'zimizni o'zimiz aldamaylik.

Xumora NIZOMOVA,
Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti noshirlik yo'nalishi talabasi.

SPORTDA FAQAT NATIJA MUHIMMI?

Muammolarga qachongacha ko'z yumiladi?



Viloyatda 23 ta olimpia, 4 ta milliy, 21 ta noolimpia sport turi bo'yicha federatsiya, 9 ta assosiatiya, 3 ta sportni rivojlantirish markazi, 7 ta sport klubi, 2 ta jismoniy tarbiya va sport jamiyati hamda 1 ta sport kengashi faoliyat ko'rsatmoqda. Sport turlari bo'yicha viloyatimizdan O'zbekiston milliy terma jamoasi tarkibiga 1003 nafar (asosiy tarkibiga 725 nafar, zakira tarkibiga 338 nafar) sportchi qabul qilingan. Bu milliy terma jamoa tarkibining qariyb 10 foizini tashkil qiladi. Ammo...

Joriy yil boshida federatsiyalarda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan o'tkazilgan reytingga ko'ra, viloyatda yetti sport turi qoniqarli (dzyudo, eshkan eshish, yunon-rum kurashi, yengil atletika, gimnastika, kurash va sambo), 20 ta sport turi o'rtacha (velosport, boks, basketbol, suzish, gandbol, erkin kurash, voleybol...), 5 ta sport turi past (qilichbozlik, ot sporti, sportning texnik va o'q o'tish turlari, tennis va regbi) ko'rsatkichli toifaga ajratilib, federatsiyalardagi ushbu muammolarni hal qilish bo'yicha amaliy ishlar boshlangani aytilgan edi.

Ammo 2022-yilda badminton, penchak silat, kriket federatsiyalari tomonidan O'zbekiston milliy terma jamoasi tarkibiga uruman sportchi yetkazib berilmagan. Shuningdek, qilichbozlik, o'q o'tish, triatlon, zamonaviy beshkurash va bahodirlar o'yini sport turlaridan 1 nafardan sportchi terma jamoa tarkibiga qabul qilingan, xolos.

Hozirgi kunda viloyatda 30 ta sport ta'lim muassasasi, 5780 ta sport inshooti mavjud bo'lib, 4713 ta sport inshootining holati qoniqarli, 893 tasi esa ta'mirlab holatda. Jumladan, Qo'shro'q tumanidagi 10 ming o'rinni "Mehnat" stadionining o'rindiqlari, yugurish yo'llari achinari holatda, Nurobod tumani sport maktabiga qarashli Jarquduq va Girdiqo'rg'on mahallalaridagi "TIP-1" sport inshootlari, Samarqand shahridagi 2-sport maktabiga qarashli "Nafis" sport majmuasi, Oqdaryodagi sport maktabiga qarashli "TIP-1" sport inshooti, 30, 11, 20, 32, 38, 51, Urgutdagi 5, 123, Bulung'urdagi 2, 30-umumta'lim maktablarining sport zalari ta'mirga muhtoj. Shuningdek, viloyatdagi 389 ta umumta'lim maktabida sport zalari yo'q va belgilangan 34 nomdagi sport jihozlariga ehtiyoj mavjud.

Sportchilarimiz 2022-yilning 11 oyi davomida O'zbekiston chempionati (kubogida 3729 ta (1380 ta oltin, 1000 ta kumush, 1289 ta bronza), jahon, Osiyo va xalqaro musobaqalarda 275 ta (50 ta oltin, 94 ta kumush, 125 ta bronza) medalni qo'lga kiritgan.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.



Ertak terapiyasi

To'g'risi, ayrim maktablarda amaliyotchi psixolog faoliyati deyarli sezilmaydi. Ammo ba'zi ta'lim muassasalarida ularning ishini nafaqat o'qituvchi va o'quvchilar, balki ota-onalar, hatto mahalla-ko'y ham yaxshi baholaydi.

Yaqinda ish yuzasidan Ishtixon tumanidagi 41-umumiy o'rta ta'lim maktabida bo'ldik. Bu yerda darsdan keyingi to'garak mashg'ulotlari faoliyati bilan tanishar ekanimiz, bir sinfxonada maktab psixologi 20 nafarga yaqin bola bilan shug'ullanayotganiga guvoh bo'ldik.

Shu sinf o'quvchilarining har biri nimaga qiziqishini yaxshi bilaman, - deydi psixolog Mohira Yorqulova. - Bu ular o'rtasida o'tkazgan psixologik test va treninglar natijasida aniqlangan. Bugun o'quvchilar bilan "Ota-onamga mehrim bo'lakcha" chelleni"ni o'tkazayman.

M.Yorqulova yosh, shu bilan birga, o'z kasbiga mehri qo'yg'an psixolog. U bolalar o'rtasida "ertak terapiyasi"ni o'tkazib, ularning qaysi fan-

larga ko'proq qiziqishini, darslarda tengdoshlaridan ortda qolayotgan bo'lsa, buning sababi nima ekanini tezroq o'rganishga va bu muammoni vaqtda bartaraf etishga harakat qiladi.

"Ertak terapiyasi" orqali darsga qiziqishi bo'lmagan bolalar bilan ko'proq shug'ullanaman, - deydi u. - Masalan, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan biri yaxshi o'qiydigan, xotirasi ancha kuchli bo'lgan bir bolaning keyingi paytda darsga qiziqishi so'nib borayotgani, berilgan vazifalarni avvaligiga qaraganda sust bajarayotgani haqida gapirib qoldi. Bolani xonamga chaqirib, "Oltin baliqcha" ertagini aytib berdim va unga, "Agar sen oltin baliqcha tutib olganingda nimani so'rarding?", deb savol berdim. U esa yo'l nam-

sirab, biroz jim turdi-da, bu ertak ekanligini, uni maktab yoshigacha buvisidan ko'p bor eshitganini aytdi. Uning janjallashib qolgan dadasi va ayasi yarashishini so'rashini va bu ishni ertakdagi baliq uddalay olinmasligini aytdi. Keyin uning ota-onasini chaqirib, bo'lgan voqeani aytib berdim. Ham bir oilaviy ajrimning oldi olindi, ham bolaning o'qishga qiziqishi ortdi.

Psixolog Mehribona Yorqulova o'quvchilar bilan birga nafaqat maktabda balki mahallada ham turli aksiyalar tashkil etadi. Yaqinda "Biz zo'rvonlikka qarshimiz" aksiyasi doirasidagi tadbirlarga ota-onalarni, mahalladagi uyushmagan yoshlarni, shaharcha avtoboshbektadagi yo'lovchi tashuvchi transport haydovchilarini jalb qildi.

Ularga maktabimiz o'quvchilari "beydijik"lar tarqatdi, - deydi M.Yorqulova. - Va ular aksiyamiz ishtirokchisiga aylandi. Har bir qatnashchiga zo'rvonlikning kelib chiqishi va uning salbiy oqibatlarini sodda qilib tushuntirib berdik. Ko'pchilik yomon odatlari borligini va ularidan voz kechishi kerakligini aytdi.

To'liqin SIDDIQOV.

MATBUOT UYI

Zarafshon

С АМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yatga olingan. Nashr 100. Indeks 438, 16 541 nusxada chop etildi. Buyurtma 18. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Turzunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririya-tadqiqot kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Nashir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonamanzili: Samarqand shahri, Spitameh ko'chasi, 270-uy.

Boshlang'ich topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Boshlang'ich topshirish vaqti: soat 19:00

Navbachi muharrir: G'.HASANOV.

Navbachi: S.MARDIYEV.

Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X

9 1772010 667009

Sotuvda nazir keltirilgan holda